

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

Engil sanoat texnologiyasi fakulteti

“Liboslar Dizayni” kafedrası

REFERAT

**Mavzu: Modaning funksiyalari, uning tarkibi va rivojlanish
qonuniyatlari**

Bajardi: 25-11 guruh Yusupova N.

Tekshirdi: Raxmatullayeva U.

Toshkent-2014

Modaning funktsiyalari, uning tarkibi va rivojlanish qonuniyatlari

Dizaynerning asosiy faoliyatining mazmuni madaniy namunalarini yaratish bo'lgani uchun unda moda kabi fenomen to'g'risida to'liq tasavvuri bo'lishi lozim. Moda industriyasida muvaffaqiyatli ishlash uchun modaning asosiy qonuniyatlarini, ijtimoiy hodisa sifatida tushunish kerak, uni ijtimoiy psixologik va ijtimoiy rivojlanish, prognozlash usullarini va mexanizmini bilish kerak. Moda lotincha modus-me'yor, qoida; fransuzcha-moda; italiancha moda; inglizcha moda (ko'pincha fashion atamasi qo'llaniladi).

Zamonaviy jamiyatda moda ommabob xulq shakllaridan biridir. Demak, moda atamasini quyidagicha ta'riflash mumkin: moda bu o'ziga hos usul, siymo, ijtimoiy axborotni ishlash uchun me'yor (psixolog L.Petrovning ta'rifi). Moda o'zgarish jarayonida bo'lgan moddiy va ruhiy qiymatlariga kiradigan barcha madaniyat turlariga mansub: san'at, fan, texnika, siyosat, sport. Dizayn- moda mexanizmini fan ta'sir etadigan madaniyat sohasidir. Moda kostumga, buyumlar xossasiga, ya'ni moda namunasi bo'ladigan buyumlarga ta'sir etadi. Moda tarkibining qiymatlarini orasida birinchisi (atributiv yoki ichki) va ikkinchisi mavud.

Modani birinchi qiymatlariga zamonaviylik, universallik, demonstrativlik va o'yin kiradi. Zamonaviylik- modaning tarkibida fundamental qiymatidir. Xar qanday yangiliklar modali bo'la olmaydi va xar qanday modali standartlar va namunalar ham yangi bolmaydi (retro uslubi). Ekologik uslub modada yangi yuqori texnologik sintetik materiallarni ishlatishni inkor etib, ming yillar mobaynida ma'lum an'anaviy zig'ir, ip, shoi va jun gazlamalarni kiritdi. Universallik (diffuzlik) vaqtdan tashqari hech qanday cheklashni e'tirof etmaydi.

Demonstrativlik moda komunikatsiyasini bir shakldir, u moda muxlislariga o'zi to'g'risia boshqalarga ma'lumot berishga imkon beradi. Modaning o'yin qiymati evristik ijodiy faoliyati bilan bog'liq va u yangilikni izlashni, yangilikni yaratishni, eskilikni yangi sifatida tavsiya etishni rag'batlantiradi. Modaning ikkinchi (sirtqi) qiymati konkret vaziyat va moda

muxlarning kotigoriyasi bilan bog'liq, ular qarama qarshi qiymatlarni ko'zlaydi:
ijtimoiy tenglikni yoki elitarlikni, go'zallik yoki faqat qulaylikni.



Kostyum va moda funksiasi. Dizaynerning asosiy maqsadi- buyumning yaxlit badiiy kontekstining belgisi va borlig'ini loyixa ob'ektini yaratishdir. Buyumda inson siymosini ifodalash, odam tanasi morfologiyasini tiklash – loyixalovchining vazifasidir.

“Buyum funksiyasi” tushunchasi – badiiy loyixalashning markaziy kategoriyasidir. Kostyum funksiyalari tarixiy tashkillangan. Ilk bor kiyim ximoya funksiyasini bajargan (tashqi muxitdan). Kostyum funksiyasida jo'grafik va iqlim sharoiti, milliy an'analari, estetik didlari aks etadi. Kostyumning funksional tarkibini tadqiqot etib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: kostyumning moljali, uning funksiyasi, gazlama va bezaklarni o'zaro bog'liqligini aniqlaydi .

Funksiya-bu buyumning faoliyati va uni harakatini dinamik tavsifdir. Funksiya atamasi yaxlit qismni o'zaro bog'langan ma'noda qollanadi. Kostyum funksiyasini quyidagicha tasniflash tavsiya etiladi:

O'zgartirish funksiyasi- tashqi muxitni qulay holatida saqlaydi, insonni muhit bilan aloqasini kengaytiradi. Rezultativ funksiya buyumni maqsadlarini tavsiflaydi. Integrativ funksiya inson va jamiyatni birinchi o'rinda tutadi. Estetik funksiya xar xil xalqlar tomonidan turlicha tushunilgan. Ba'zi xalqlar tana shaklini deformatsiya qilishgan, korset kiyishgan.



Modani rivojlanish asosiy qonuniyatlari . Modaning taraqqiyoti ob'ektiv ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari bilan bog'liq: biofiziologik o'zgarishlar, akselratsiya, ijtimoiy psixologiyaning o'zgarishlari. Moda tadqiqotchilari moda taraqqiyotida muayyan qonuniyatlarini aniqlashdir: ijtimoiy tarixiy xodisalari bilan modani bog'liqligini; modani internatsionalizatsiyalanishini; modani demokratizatsiyalanishini; modani tez tarqalishini; modani tsiklsimon rivojlanishini.

Moda taraqqiyoti ijtimoiy tarixiy hodisalar bilan bog'liqligi kuzatilmoqda: ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, san'at va texnikada inqilobiy tub o'zgarishlar. Modani darxol o'zgarishlariga siyosiy inqiloblar, yirik tarixiy o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Jamoaning e'tiborini o'ziga tortadigan barcha siyosiy hodisalar modada yangi standartlar va namunalarni paydo bo'lishida sabab bo'ladi. Moda internatsional hodisa, unda chegara yo'q, xalqaro aloqalarni va ommaviy axborot vositalarni rivojlanishi, xalqaro bozorini shakllanishi modani internatsionlizatsiyanalishiga asos yaratadi. XVI asrda ispan modasi butun Yevropa modasi bo'lishi bilan bu jarayon boshlandi. Yevropa modasi paydo bo'lib, jahon modasiga aylandi.